

“INGLIZ TILI DARSLARIDA TINGLAB TUSHUNISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH”

Mirzabuvayeva Mavjudaxon Abdilazizovna

FarDU Akademik litseyi. Ingliz tili o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz tili ta'limida eshitish ko'nikmalarini shakllantirishning ahamiyati, samarali usullar va strategiyalar tahlil qilinadi. Tadqiqotda kommunikativ yondashuv asosida o'quvchilarda tinglab tushunish qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha ilg'or tajribalar o'rganilgan. Shuningdek, eshitish mashg'ulotlarining interaktiv va raqamli metodlar orqali amalga oshirilishining afzalliklari yoritilgan.

Kalit so'zlar: eshitish ko'nikmasi, tinglab tushunish, kommunikativ yondashuv, audio materiallar, til o'rganish strategiyasi, interaktiv ta'lim.

Abstract: This article analyzes the importance of developing listening skills in English language teaching, effective methods and strategies. The study examines best practices in developing students' listening comprehension skills based on a communicative approach. It also highlights the advantages of implementing listening exercises through interactive and digital methods.

Keywords: listening skills, listening comprehension, communicative approach, audio materials, language learning strategy, interactive education.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida xorijiy tillarni o'qitish, xususan, ingliz tilini o'rgatish jarayoni mamlakatning global maydondagi raqobatbardoshligini ta'minlovchi muhim omillardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Chet tillarini puxta o'zlashtirish, nafaqat so'z boyligini oshirish yoki grammatik qoidalarni bilish, balki nutqni to'g'ri tinglab tushunish, eshitish orqali ma'no anglash, va muloqot jarayonida eshitilgan axborotni to'g'ri talqin qilish kabi ko'nikmalarni ham o'z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan, eshitish mashg'ulotlari (listening activities) ingliz tili ta'limining ajralmas va asosiy qismi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “Xorijiy tillarni o'qitish tizimini takomillashtirish to'g'risida”gi[1] qarorida xorijiy tillarni o'qitish jarayonida innovatsion texnologiyalar, raqamli resurslar va interaktiv metodlardan foydalanish zarurligi ta'kidlanadi. Ushbu qarorga muvofiq, tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun zamonaviy texnik vositalar, mobil ilovalar, multimediali materiallar, podkastlar va videodarslardan foydalanish samarador natijalar beradi. Shuningdek, qarorda xorijiy tilni o'rganishda

o'quvchilarning amaliy muloqotga tayyorligini ta'minlash asosiy maqsad sifatida belgilangan.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-dekabrda 700-son qarori "Xorijiy tillarni o'qitish tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" [2] hamda unga muvofiq ishlab chiqilgan "Chet tillarini o'qitishda kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quv dasturlarini takomillashtirish konsepsiyasi" da eshitish, so'zlashuv, o'qish va yozish ko'nikmalari uyg'unligini ta'minlash masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Eshitish mashg'ulotlari bu to'rt asosiy til faoliyatining birlamchi bosqichi bo'lib, u so'zlashuvning tabiiy jarayoniga tayyorlaydi.

Tinglab tushunish ko'nikmasining rivojlanishi o'quvchilarning fonetik idrokini kengaytiradi, talaffuzdagi farqlarni ajrata olish qobiliyatini shakllantiradi, leksik va grammatik birliklarni kontekstda o'zlashtirishni tezlashtiradi. Shu sababli, har bir ingliz tili darsida eshitish mashg'ulotlari tizimli, bosqichma-bosqich va didaktik tamoyillarga asoslangan holda tashkil etilishi zarur. Bunday yondashuv o'quvchilarda tilni tabiiy idrok etish, real hayotiy vaziyatlarda muloqotga kirishish va eshitilgan nutqni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Eshitish mashg'ulotlari o'quvchilarning ijtimoiy-madaniy tafakkurini ham kengaytiradi. Chunki audio va video materiallar orqali ular ingliz tilida so'zlashuvchi xalqlarning madaniyati, urf-odatlar va nutq madaniyati bilan tanishadi. Bu esa o'quvchilarda madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, ingliz tilini o'qitishda eshitish mashg'ulotlarining o'rnini til o'rganish jarayonining sifatini belgilovchi eng muhim omillardan biridir. U nafaqat lingvistik bilimlarni mustahkamlash, balki o'quvchilarning fikrlash, tahlil qilish va muloqot qilish qobiliyatlarini rivojlantiruvchi vosita sifatida ham katta ahamiyatga ega. Shuning uchun zamonaviy ingliz tili darslari eshitish faoliyatiga asoslangan interaktiv yondashuvsiz samarali bo'la olmaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda ingliz tilini o'qitish jarayonida eshitish mashg'ulotlarining samaradorligini o'rganish, ularning o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishdagi o'rnini aniqlash asosiy maqsad etib olindi. Shu sababli tadqiqot metodologiyasi pedagogik, psixolingvistik va kommunikativ yondashuvlarga tayangan holda shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Dars jarayonida berilgan mavzuni o'quvchilar qiziqqan tarzda o'rgatish, hozirgi kunda eng samarali metodlardan biri. Misol tariqasida 8-sinfni olamiz. Bu sinfdagi barcha o'quvchilar qiziqqon, zamonaviy, turli hildagi musiqa shaydolari. Bu sinfdagi

yaxshi natijaga erishish uchun o'quvchilarning qiziqishlaridan kelib chiqib yo'l tutish eng samarali usul bo'ladi. Sinfning deyarli barcha o'quvchilari bugungi kundagi zamonaviy musiqalarni sevib tinglaydi, demak o'qituvchilar ya'ni biz ham ular kabi zamonaviy bo'lamiz. Qaysi ma'noda, albatta dars jarayonidan kelib chiqib. Bu sinfdagi o'quvchilarga, birorta musiqani tinglatib shuni aytib berin deya so'ralsa hech ikkilanishsiz barcha o'quvchilar aytib bera oladi. Bizning mavzuda esa hozir "Wild animals". O'qituvchi bu jarayonda mavzuga oid so'zlarni birlashtirib bir musiqa tarzida o'quvchilarga aytib bersa, dars jarayoniga tobi yoq, til o'rganishga qiziqmaydigan o'quvchi ham musiqaga o'zi sezmagan holda e'tibor bera boshlaydi. Buni o'qituvchi o'zi musiqa tarzida aytib, so'ng o'quvchilardan aytib berishini so'rasa, albatta har bir o'quvchi aytib beradi. To'g'ri bu chet tillaridagi gramatik mavzularga to'g'ri kelmaydi biroq hech qanday natijaga erishmasdan dars uchun ajratilgan 45 daqiqani bekor ketkizgandan anchagina yaxshi deb o'ylayman.

Zamonaviy texnologiyalar dars jarayonini birmuncha tezlashtiradi va til o'rganish jarayonini ham tezlashtirmay qolmaydi. Bugungu kunda 1-sinf o'quvchilari uchun ham chet tili darsi joriy etilgan. Afsuski men o'qigan paytta bunday emas edi. 1-sinf o'quvchilari hali o'zbek tilida ham o'zlari haqida ravon gaprib berolmasa chet tilida nima o'rgana oladi, degan savol tug'uladi albatta. 1-sinlarga aynan chet tilida so'zlashish o'rgatilishi ko'zda tutilmagan, mening fikrimcha. Ularga atrof muhitdagi ular har kuni uchratadigan narsalari, sevimli hayvonlari, sevimli fasllari, ota onasi, opa ukasi va ular kundalik ishlatigan so'zlarni "ESHITISH" orqali bir yilda o'rgatish katta natija va bugungi kunga o'qituvchilar mana shu natijaga erishayapti. Nega aynan eshitish orqali. 1-sinf o'quvchisi hali o'zbek tilida ham yozishni yaxshi bilmaydi. Lekin ularga eshitsu orqali, rasmlarni ko'rsatish orqali so'zlarni o'rgatish samarali foyda beradi. Buning uchun o'qituvchiga, eshittirish uchun zamonaviy texnologiyalar kerak bo'ladi. Shu jarayonda zamonaviy texnologiyalarning ahamiyati qanchayin kattaligini ko'ra olamiz. Aynan "ESHITIB" o'rganish, til o'rganish jarayonining muhim bo'g'inlaridan biri. Aynan 1-sinflar uchun emas, barcha o'quvchilar uchun qo'llaniladigan usullardan biri. "ESHITIB" o'rganish o'quvchini diqqatini bir joyga jamlay olishiga, o'rganilayotgan mavzuni yaxshiroq tushunishiga, chet tilidagi talaffuzni chuqurroq o'rganishga eng asosiysi chet tillariga bo'lgan qiziqishini orttirishga hizmat qiladi.

Morley (1991, Celce-Murcia 82-b,) " Ular gapirgandan ikki baravar ko'p, o'qiganlaridan to'rt baravar ko'p va yozganlaridan besh baravar ko'p tinglashni kutishadi" deb ta'kidlaydi. Tinglash-bu aloqa jarayonida xabarlarini to'g'ri qabul qilish va talqin qilish qobiliyati deganidir.

"Tinglash nafaqat biror narsani eshitishdir" deb ta'kidlaydi Shvarts (2004, 2-bet). "Kattalar muloqot vaqtining deyarli yarmini tinglashga sarflashlari taxmin qilingan.

Talabalar o'qituvchilarni va bir-birlarini tinglash orqali o'z ma'lumotlarining 90 foizini olishlari mumkin" deydi yana Shvarts.

Tinglash-bu eng ko'p ishlatiladigan til modali. Tinglash real vaqtda amalga oshirilishi kerak. Ikkinchi imkoniyat yo'q, agar, albatta, tinglovchilar ma'ruzachilarni tinglashda takrorlashni so'ramasalar.

Shunga qaramay, tez-tez aytilganlarni tushunish uchun ma'lumotni tezda qayta ishlay olmaydigan til o'rganuvchisi uchun tinglash stressli faoliyat bo'lishi mumkin (Goh & Taib, 2006, 222-b). Tinglashni o'rgatishda xilma-xillikdan foydalanish talabalarning materialni tushunishda motivatsiyasini rivojlantirishi mumkin. Ingliz tili bo'limida tinglashni o'rgatish kichik va o'rta maktablarda o'qitishdan farq qiladi. O'qituvchilar tomonidan sinfda tegishli usul va uslublarni amalga oshirish talabalar uchun natijaga ta'sir qiladi. Masalan, tegishli tinglash materiallari, yaxshi sinf muhiti, tegishli o'qitish usullari va mazmunli mashqlar o'quvchilarga yaxshi tinglash qobiliyatlariga erishishga yordam beradi.

Tinglash qobiliyati muloqotning muhim qismi va ikkinchi tilni o'rganish uchun asosdir. Nunan (2003, 26-b) ga ko'ra, tinglash fonemalardan eshitiladigan tovushlarni matnga to'liq dekodlash jarayonidir. Braun (2001, 263-b) tinglashni o'rganish haqiqatan ham javob berishni va tinglashga zanjir sifatida javob berishni davom ettirishni anglatadi. Tinglash qobiliyati tinglanayotgan narsaning ma'nosini tushunish uchun tinglash mahoratini anglatadi.

Tinglash jarayoni o'quvchilarga so'ralgan/aytilgan narsalarga javob berishga yordam beradi.

Bundan tashqari, tinglash barcha samarali muloqotning kalitidir;

Samarali tinglash qobiliyatisiz xabarlar osongina noto'g'ri tushuniladi, aloqa buziladi va xabar yuboruvchisi osongina hafsalasi pir bo'lishi yoki asabiylashishi mumkin.

Bundan tashqari, Hughes (1991, 134-b) tinglash bilan shug'ullanadigan ikkita qobiliyatni eslatib o'tadi, ular mikro ko'nikmalar va makro ko'nikmalardir. Mikro ko'nikmalarda kimdir nima deyayotganini tushunish uchun tinglovchi intonatsiya turlarini, funksiyalar va tuzilmalarni tan olishni, yaxlit qurilmalarni talqin qilishi, jumla tarkibiy qismlarini aniqlashi va nutq belgilarini tan olishi kerak.

Makro ko'nikmalarda kimdir nima deyayotganini tushunish uchun tinglovchi aniq ma'lumotni tinglash va eshitilayotgan narsadan mohiyatini olish bilan shug'ullanishi kerak yoki tinglovchi quyidagi ko'rsatmalar yoki ko'rsatmalardan ma'lumot haqida umumiy tasavvurga ega bo'lishi kerak.

Ingliz tili o'rganishda tinglash qobiliyatini baholash ham muhim rol o'ynaydi.

Tinglash ko'nikmasini baholashning ikki turi mavjud, ya'ni shakllantiruvchi va umumlashtiruvchi baholash (Braun, 2004, 13-b). Bir tomondan, talabalar tinglash

bilan shug'ullanganlarida davom etayotgan va norasmiy ravishda o'tkaziladigan baholarga o'qituvchilar tomonidan diagnostik ravishda qo'llaniladigan shakllantiruvchi baholash deyiladi. Boshqa tomondan, maktablar, kollejlari va hukumatlar tomonidan talab qilinadigan summativ baholarga viktorinalar, yutuqlar testlari, malaka testlari va standartlashtirilgan testlar kiradi.

Zamonaviy dunyoda yashar ekanmiz shuni aniq aytishimiz kerakki, hozirgi kunda yoshlarga ta'lim berish ayniqsa til o'rgatish va dars davomida ularni til o'rgatishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish birmuncha sabr talab qiladi. Ingliz tili darslarida texnologiyalardan foydalanib, qiziqarli qilib yanda yoshlarda qiziqish uyg'otish kerak. Tinglash qobiliyatini oshirishda asosan darsdan tashqari, bo'sh vaqtlarida ko'proq turli xil filmlar ko'rish, har xil ma'lumotlar beradigan audio fayllar eshitish maslahat qilinadi.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. "Xorijiy tillarni o'qitish tizimini takomillashtirish to'g'risida" PQ-5117, 19.05.2021. – [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/5422639>

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. "Xorijiy tillarni o'qitish tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 700-son, 19.12.2022. – [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/6271408>

3. Alexander, L. G. (1992). Fluency in English. London: Longman Group Ltd.

4. Brown, H. D. (2001). Teaching by principle: An interactive approach to language pedagogy, (2nd Ed.). New York: Longman.

Brown, H. D. (2004). Language assessment principles and classroom practices. San Francisco: San Francisco State University Press.